



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
OILA VA XOTIN-QIZLAR QO'MITASI  
BUYRUQ**

2023 - yil 17 03 23 -son

Toshkent sh.

**Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 19-oktabrdagi  
“O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimida  
xodimlarning Odob-axloq qoidalarini qayta tasdiqlash to'g'risida”gi 67-son  
buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Faromniga asosan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuriga o'tkazilib, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi shaklida tashkil etildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 19-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimida xodimlarning Odob-axloq qoidalarini qayta tasdiqlash to'g'risida”gi 67-son buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 19-oktabrdagi 67-son buyrug'i 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimida xodimlarning Odob-axloq qoidalari – “*Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tizimida xodimlarning Odob-axloq qoidalari*” deb qayta nomlansin.
2. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 19-oktabrdagi 67-son buyrug'i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Odob-axloq komissiyasi tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, ilovaga muvofiq qayta tasdiqlansin.
3. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 19-oktabrdagi 67-son buyrug'i 3-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi Nizom – “*Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi Nizom*” deb qayta nomlansin.
4. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 19-oktabrdagi 67-son buyrug'inining qolgan qismlari o'z kuchida qolgan deb hisoblansin.

5. Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasiga (X.Mamatkulova) mazkur buyruqni Oila va xotin-qizlar qo'mitasi markaziy apparati xodimlari va hududiy bo'linmalarga 3 kun muddatda yetkazish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiriladi.

Rais

O.Parpibayeva



*Aceera mejzus  
Xotin*